
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NODIM NAMANGONIYNING QO'QON ADABIY MUHITIDAGI O'RNI

Qurbonova Sarvinoz Gulboyevna,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

O'zbek adabiyoti taraqqiyotida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot alohida o'rin tutadi. Bu davrda o'zbek adabiyoti yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi, uning yetuk vakillari o'z asarlarida xalqchillik, vatanparlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdilar. Nodim Namangoniy mana shu davr adabiyotining atoqli namoyandalaridan sanaladi.

Ushbu davr adabiyotida Qo'qon adabiy muhiti o'z o'rniga egaligi va ko'plab ijodkorlar yetishib chiqqanligi bilan ajralib turadi. Nodimning hayoti va ijodiy faoliyatida Qo'qon adabiy muhitining katta ahamiyati bor, chunki u yerdagi adabiy hayot qalbi qaynoq va ijodiy yangilikka to'la shoirni Muqimiy, Furqat, Zavqiylar bilan bog'ladi.

Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari ijodining mufassal tadqiqi hanuz kun tartibi masalasida turgan bo'lsa ham, bu borada ayrim ilmiy yutuqlarga erishilgan. Jumladan, adabiyotshunoslikda Nodim ijodi A.Tursunov va A.Xalilbekovlar tomonidan o'rganilgan[1]. A.Xalilbekov shoir adabiy merosini monografik jihatdan tadqiq qilgan [2].

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandasi Sulaymonxo'ja Ulug'xo'ja o'g'li Nodim Namangoniy ijodiga oid dastlabki manba – shoirning o'zi tartibga keltirgan qo'lyozma bayoz "Bayozi Nodim" deb nomlanadi va uning ikki nusxasi mavjud. Ulardan biri – O'zR FA SHI fondida saqlanayotgan 4179 ashyo raqamli qo'lyozma bayoz. Ikkinchisi – O'zR FA SHI Hamid Sulaymonov fondida saqlanayotgan 314 ashyo raqamli qo'lyozma bayoz. Nodim tomonidan tuzilgan ushbu bayozning har ikki nusxasi muallifning o'z dastxati bilan yozilgan bo'lib, ularda shoirning o'zbek va fors tilidagi g'azal va muxammaslari, murabba', musaddas, musamman, tarix, soqiynoma va sayohatnomalari joy olgan. Qo'lyozmalardagi she'rlarning joylashishi devon tuzish an'anasiga mos kelmaydi. Ular bir xil janrdagi asarlardan tarkib topgan bo'lsa-da, ammo she'riy janrlarning joylashish tartibi o'zgachaligi bilan bir-biridan farq qiladi. "Bayozi Nodim"ning O'zR FA SHI Hamid Sulaymonov nomli fondida saqlanayotgan 314 ashyo raqamli nusxasi 211-sahifasigacha g'azal va tarixlar, 212-348- sahifalarida esa muxammaslar va bir musamman berilgani bilan dastlabki nusxadan farq qiladi. "Bayozi Nodim"ning O'zR FA SHI fondida saqlanayotgan 4179 ashyo raqamli dastlabli nusxasi shoir nasabiga oid shajara berilgani jihatidan nodir manba sanaladi [3].

XX asr boshlaridagi vaqtli matbuot sahifalarida Nodimning bir qancha she'rlari chop etilgan. Masalan, shoirning 1899-yil "Buxoro – Samarqand –Toshkent safari" haqida yozgan 166 misrali manzumasi [4], 1902-yil muborak haj safari taassurotlari haqida yozgan 298 misrali masnaviysi va "Hasbi hollariga va bul muzofotlardag'i yor-birodarlarig'a vido qilmoq va rozilik tilamak muddaosida" nomli 29 bandli muxammasi [5], "Alvido" radifli muxammasi [6], Chodak qishlog'ida qurilgan bir madrasa haqidagi tarix she'ri[7], Otaulla Oxundga yozgan forscha she'riy maktubi[8] chop etilgan. Shoirning ushbu she'rlari jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy yangiliklar hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etishga qaratilgan. Nodim hayoti va ijodiga oid dastlabki ma'lumotlar A.Tursunov va A.Xalilbekovlarning nashriy manbalarida uchraydi [9]. A.Xalilbekovning "Nodim Namangoniy-

[1] Нодим. Танланган шеърлар / Нашрга тайёрловчилар: Турсунов А., Халилбеков А. – Тошкент: Ўздавнашр, 1964. – 88 б.

[2] Халилбеков А. Нодим Намангонийнинг хаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ..дисс. – Тошкент, 1967.– 250 б.

[3] Болтабаева О. XX аср бошларида Наманганда адабий ҳаракатчилик: намояндалари, анъаналари, янгиланиши: Филол. фан. номз. ..дисс. – Тошкент, 2019.– 139 б.

[4] Туркистон вилоятининг газети, 1899, 8 май. - № 17.

[5] Туркистон вилоятининг газети,1902, 2-11 ноябрь. – № 43-44.

[6] Туркистон вилоятининг газети, 1902, 2 декабр. – № 47.

[7] Туркистон вилоятининг газети, 1904, 10 апрел. – № 14.

[8] Туркистон вилоятининг газети, 1906, 12 ноябрь. – № 61.

[9] Нодим. Танланган шеърлар / Нашрга тайёрловчилар: Турсунов А., Халилбеков А. – Тошкент: Ўздавнашр, 1964. – 88 б.

ning hayoti va ijodi”[1] mavzusidagi nomzodlik ishi muhim ahamiyatga ega. Shoir haqidagi yana bir manba – Po‘latjon Qayumovning “Tazkirayi Qayyumiy” asarida Nodim shoir va olim sifatida Muqimiyning do‘sti bo‘lgani, uning vafotiga atab marsiya yozgani hamda “Tuhfat ul-obidin” nomli bayozda ko‘plab she’rlari uchrashi aytib o‘tilgan [2].

A.Tursunov, A.Xalilbekovlar tomonidan nashrga tayyorlangan shoirning “Tanlangan she’rlar” to‘plami hamda A.Xalilbekov maqolalari, “Nodim hayoti va ijodi”, “Namangan adabiy muhiti”, “Namangan adabiy gulshani” kitoblari, B.Qosimov va boshqalar tomonidan tuzilgan “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligi, H.Homidiy, M.Ma’murovlarning “Namangan adiblari” nomli kitoblaridagi ma’lumotlar Nodim ijodini o‘rganishda muhim manbalar sanaladi. Chunki ularda Nodim adabiy-estetik tafakkurining shakllanish bosqichlari, asarlarining badiiy qimmati yoritib berilgan.

Nodim hayoti va ijodini dastlab keng jamoatchilikka tanitgan olimlar O.Sharofiddinov, T.N.Qori-Niyoziy, G‘.Karimovlar shoirni demokratik adabiyot vakili sifatida Muqimiy uslubining davomchilaridan biri sifatida e’tirof etishgani haqida A.Xalilbekov ma’lumot berib o‘tgan. Shoir faoliyatining dastlabki ilmiy tadqiqi A. Tursunov va A.Xalilbekovlar tomonidan davom ettirildi.1964-yilda shoirning “Tanlangan she’rlar” kitobi nashrdan chiqadi. Kitobning A.Tursunov va A.Xalilbekovlar tomonidan yozilgan “Shoir Nodim Namangoniy” sarlavhali kirish so‘zida shoirning vafot yili 1909-yil deb xato ko‘rsatilgan. Chunki Xilvatiyning qo‘lyozma devonida 1910-yilning yoz faslida Nodim hayot bo‘lgani, u bilan birga o‘g‘li Musallamxon hamda to‘raqo‘rg‘onlik olimu fozillar “Pochcha ota” ziyoratiga borishgani haqida ma’lumot bor. Manbalarni qiyosiy o‘rganish jarayonida Nodim 1910- yil 26- iyul seshanba kuni Namangan shahrida vafot etgani haqidagi qarashlar o‘z tasdig‘ini topdi, ya’ni A.Xalilbekov 1967-yil “Nodim Namangoniyning hayoti va ijodi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida shoir tavalludi va vafoti bilan bog‘liq sanalarga uning zamondoshlari Yahyoxon to‘ra, Ibrat va Xilvatiylar tomonidan yozilgan marsiyalar asosida aniqlik kiritadi. Shoir lirikasining mavzu doirasi va g‘oyaviy yo‘nalishi yoritilgan ayrim tahlil jarayonlarida hukmron mafkura ta’siri sezilib tursa-da, ushbu dissertatsiya Nodim ijodi biografik aspektda tadqiq etilgan dastlabki ilmiy ish sifatida o‘ziga xos qimmatga ega”. Shuningdek, Nodim ijodini o‘rgangan P.Qayyumiy “Tazkirai Qayyumiy”da shoirning yetti bandli soqiynomasi va Amiriyning “Qoshinga tekizmagil qalamni” g‘azaliga bog‘lagan muxammasini havola etgan. Ammo ushbu manbada P.Qayyumiy uning vafot yilini 1930-yil deb noto‘g‘ri ko‘rsatadi . A.Tursunov va A.Xalilbekovlar tomonidan nashrga tayyorlangan “Tanlangan she’rlar” kitobining kirish so‘zida shoir lirik merosining mavzu va janr xususiyatlari yoritilgan. Shoirning ma’rifatparvarlik ruhida yozgan she’rlari hamda hajviy, ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega ijodi tahlil etilgan. Uning “Maqsudi alarni siymu zardur”, “G‘alati”, “Shikoyati paxta”, “Xit qildi”, “Dar mazammati zamona”, “Yig‘chi xalifaning hajvi”, “Bezgak” kabi hajviy she’rlari mavjud siyosiy tuzum ta’siri sabab, o‘sha davr hukmron mafkurasi talabi bilan tahlil etilgan. Masalan, “Shoir “Yig‘chi xalifaning hajvi” she’rida Dukchi eshonning makri va ig‘vogarligini qattiq qoraladi”, deya fikr bildirilgan. Ushbu she’r mafkuraviy tazyiq tufayli buyurtma asosida yaratilgani uchun A.Xalilbekovning 1994-yil nashrdan chiqqan “Nodim hayoti va ijodi” nomli kitobida uchramaydi. Shoir hayoti va ijodini mukammal o‘rganishga qo‘l urgan A.Xalilbekov vaqtli matbuot sahifalarida ham o‘z qarashlarini bayon etgan. Jumladan, “Muqimiy va Nodim” sarlavhali maqolasida ikki shoir o‘rtasidagi do‘stlik va adabiy hamkorlik aloqalari haqida muhim ma’lumotlar beradi. Mustaqillik yillarida Nodim adabiy merosi xolis o‘rganila boshladi. Xususan, A.Xalilbekov tomonidan 1994-yili nashr etilgan “Nodim hayoti va ijodi” nomli risolada shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari hamda ma’rifatparvarlik ruhidagi she’rlari tahlil qilingan. Kitob so‘ngida shoirning ayrim zamondoshlari hamda Hayrat, Xilvatiy, So‘fizoda kabi shoirlar va Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Shojalil Shodumarovlar kabi hofizlar haqida qisqa-qisqa ma’lumot berilgan. Bu ma’lumotlar XX asr boshlarida yaratilgan muvashshaxlardagi shaxslar hayotini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So‘fizoda, Dog‘iy, Suhayliy kabi shoirlarimiz faoliyati, adabiy merosini yaxlit holatda tadqiq etish uchun yetarlicha manbalar mavjud. “Kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan ming-minglab qo‘lyozma va toshbosma asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalk dunyoda kamdan-kam topiladi”. Namangan adabiy harakat-

[1] Халилбеков А. Нодим Намангонийнинг хаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ..дисс. – Тошкент, 1967. – 250б.

[2] Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий. Уч жилдлик. Жилд II. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – Б. 335-337.

chiligi namoyandalari ijodiga oid manbalar orasida eski o‘zbek yozuvidan nashrga tayyorlanishi lozim bo‘lgan asarlar talaygina. Xususan, Hayratning ikki qo‘lyozma devoni hamda Ibratning “Lug‘ati sittati alsina”, “San’ati Ibrat, kalami Mirrajab Bandiy”, “Jome’ ul-xutut”, “Tarixi madaniyat” kabi asarlari va Nodimning “Bayozi Nodim” she’rlar majmuasi va o‘rganilayotgan shoirlar ijodidagi forscha she’rlar joriy imloda nashr etishga mushtoq. Ushbu zullisonayn shoirlarning fors tilidagi asarlari xam nashrga tayyorlansa, ular ijodining mavzu ko‘lami va janr xususiyati keng qamrovli ekani yana bir bor o‘z isbotini topadi[1].

Namangan adiblari asarlarining qo‘lyozma manbalari devon, tazkira va bayozlar, nashriy manbalar esa o‘sha davr matbuoti materiallari va toshbosma kitoblardan iborat bo‘lib, ularda mazkur adabiy harakatchilik namoyandalarining hanuzgacha ilm ahliga ma’lum bo‘lmay kelayotgan turli janrlarga oid ayrim asarlari mavjud.

Nodim, Xilvatiy, Ibrat va So‘fizoda tavallud sanalari turli manbalarda turfa xil berilgan. Manbalarni qiyosiy o‘rganish asosida mazkur ijodkorlarning tavallud sanalari bo‘yicha ilmiy asosli fikrlarga munosabat bildirildi, ularga oydinlik kiritildi.

Mustaqillikkacha Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari ijodiy merosi bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, ularning diniy-ma’rifiy mavzudagi asarlari deyarli o‘rganilgan emas. Holbuki, Nodim, Hayrat, Ibrat singari shoirlarning diniy mavzudagi g‘azallari, Xilvatiyning “Mavludi sharif”, “Qasidai ilm”, “Sayrul jibol”, “Charog‘i maktab” kabi asarlari teran mohiyati va yuksak badiiyati bilan adabiyotimiz tarixini boyitadi.

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari xalq ongini millatparvarlik ruhida shakllanishi va rivojlanishi, maorif va madaniyatni yuksalishi uchun sermahsul ijod qilishgan. Ilmiy, badiiy va tarixiy asarlari orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqatli, ilm-ma’rifatli va ijtimoiy hayotda faol bo‘lishga chaqirishgan. Ular asarlarini mavzu jihatdan quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin:

1) ishqiy; 2) axloqiy-ta’limiy; 3) ijtimoiy-siyosiy; 4) hajviy.

O‘rganilayotgan shoirlar ijodida ishqiy mavzudagi she’rlar salmog‘i ko‘pligi kuzatiladi. O‘z ijodini ishqiy g‘azal yozishdan boshlagan Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari mumtoz adabiyot vakillari kabi ma’shuqa vasliga erishmoqni niyat qilishadi. Ammo go‘zallikda tengsiz ma’shuqaning zulmkorligi, bevafoligi, hijron va ishq azobi ularga ham ozor beradi.

Nodimning ishqiy mavzudagi she’rlari ijtimoiy-siyosiy mavzuga oid ijod namunalaridan badiiy jihati yetukligi bilan ajralib turadi. Uning she’rlarida ma’shuqaning yuzi, sochi, qaddi niholi, xoli, qoshi ta’rifi qayta-qayta takrorlanadi. Ammo ulardagi an’anaviy tashbih kutilmagan yangi tasavvurlar bilan boyib boradi. Masalan, “Ustindadur” radifli g‘azalida ushbu go‘zallik tarannum etilgan:

Qoshlaring ruxsoring uzra, ey nigori nozanin,
Ul hiloli go‘yiyo mehri jahon ustindadur?

Shoir baytda ma’shuqaning qoshini hilolga, yuzini quyoshga mengzab, tashbix san’ati vositasida fikrini go‘zal badiiy shaklda ifodalagan. Uning san’atkorlik darajasini quyidagi tasvirlar misolida ham bilish mumkin:

Ul shafaq ermas, ko‘zum qon yoshi
shomi furqating,
Mavjlar aylab yetibdur charx domonigacha.
Anjum ermasdur, bu ohimni sharori bu kecha,
Ravshan aylar olami to ko‘kni kayvonigacha.

Shoir oshiq ahvoli ruhiyasini ifodalashda tashbih (shafaq oshiq ko‘zining qon yoshiga, yulduzlarning oshiq ohidan chiqqan uchqunlarga o‘xshatilishi), istiora (shomi furqat, charx domoni), mubolag‘a (ko‘zning qonli yoshi charx etagiga yetishi) singari badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalangan.

Xalq hayotini yaqindan o‘rganishni orzu qilgan Nodim Markaziy Osiyo shaharlari bo‘ylab sayohat qiladi. Bir necha bor Toshkent, Qo‘qon shaharlarida bo‘ladi. Uning ijodiga nazar tashlasak, sayohat taassurotlari aks etgan lirik merosi shoirning ziyorat maqsadida ko‘p yurt kezganini anglatadi. Shoir sayoxat taassurotlarini “Bayoni sayohati Nodim”, “Dar safari hazrati Shoximardon Nodim gufta”, “Bayoni dar safari Toshkand”, “Bayoni voqeoti safari Buxoro va Samarkand” kabi asarlarida bayon etgan. Masalan, 1887-1888 yillarda Turkistonning ma’muriy markazi Toshkentga boradi. Shoirning 1889-yilgi sayohati Buxoro-Samarqand-Toshkent yo‘nalishida davom etgan. Sayohat davomida shoir Toshkentdagi gimnaziyaga borib, u yerdagi ta’lim usulini o‘rganadi. Shoir “Sayohat taassurotlari” she’rida har bir kishi xoh diniy, xoh dunyoviy bilim egasi bo‘lsin, u albatta, o‘z orzusidagi hayotga erishishini ta’kidlab o‘tadi. Qo‘qon, Samarqand, Toshkent shaharlariga qilgan sayohat taassurotlari haqidagi ushbu she’rida gimnaziyadagi o‘qitish usulini yoqlab shunday deydi:

[1] Болтабаева О. XX аср бошларида Наманганда адабий ҳаракатчилик: намояндалари, анъаналари, янгиланиши: Филол. фан. номз. ..дисс. – Тошкент, 2019.– 139 б.

Necha yuz stol qo‘yilgan turfa har bir qasr aro,
Har biri naqshu nigori, chini zarrinkordur.

Necha ming ta’lim ahlidin kirib har xonada,
Ishlari darsu sabaq, ilmu adab takrordur.

Bo‘yla hikmatxona gimnaziyani ko‘rgach, dedim:
Ofarin, ming ofarin, bu ilm bir asrordur!

XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayot o‘rganilayotgan shoirlar ijodidagi hajviy she’rlarda ham yoritib berilgan. Nodim “Maqsudi alarni siymu zardur”, “G‘alati”, “Shikoyati paxta”, “Xit qildi”, “Dar mazammati zamona” kabi satirik hamda “Bezgak” kabi yumoristik she’rlarida mavjud ijtimoiy tuzum illatlarini keskin fosh etadi. Munofiq, riyokor, mutaassib ruhoniylarni hajv qilish bilan birga tom ma’nodagi islomiy ma’rifatni targ‘ib etadi. Uning hajviy asarlari o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni aniq tasavvur etishda yordam beradi. Masalan, “Galati” radifli yigirma to‘qqiz bandli hajviy muxammasida Namangan va uning atrofidagi qishloqlar manzarasi, ayrim tabaqa vakillarining tabiati, hayotiy voqealar qalamga olingan.

Xulosa qilib aytganda, Nodim Namangoniy o‘zining turli janr va rang-barang mavzulardagi ijod namunalari orqali Qo‘qon adabiy muhitida o‘ziga xos o‘rniga ega. Uning asarlari davr muhiti va adabiy jarayondagi an’ana va yangilanishlarni yaqqol ko‘rsatib bera oladi.

Rezume. The article examines the role of Nadim Namangani in the literary environment of Kokan, the study of his life and work, the scale of his work.

Резюме. В статье рассматривается роль Надима Намангани в литературной среде Кокана, изучение его жизни и творчества, масштабы его творчества.